



Publisher:  
Fast support and result LLC

# STDF

## Science technology & Digital Finance

VOLUME|3 ISSUE|5  
NOVEMBER|2025



*VOLUME / 3 ISSUE / 5 NOVEMBER / 2025*

*ТОМ / 3 ВЫПУСК / 5 НОЯБРЬ / 2025*

*JILD / 3 SON / 5 NOYABR / 2025*

**Davriy nashrning rasmiy nomi:** “Science technology & Digital finance” O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 17.08.2023 sanada berilgan №116083 guvohnomasi bilan ro`yxatdan o`tgan.

**Jurnal asoschilari:** “Fast support and result” nashriyoti.

**Xalqaro indeksi:** ISSN 2992-9199.



journal homepage: <https://bestjournalup.com/index.php/stdf>

## BULUTLI BUXGALTERIYA TIZIMLARI XAVFSIZLIGI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Xudayarov Rashid**

Katta o'qituvchi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali



**To'rabekov Ozodbek**

Talaba, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

### Annotatsiya

Ushbu maqolada bulutli buxgalteriya tizimlarining moliyaviy hisobotlar, audit jarayonlari va korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot 120 nafar accountant va auditor ishtirokidagi so'rov va adabiyotlar tahliliga asoslangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bulutli tizimlar hisobot tayyorlash tezligini oshiradi, xatoliklarni kamaytiradi va audit jarayonlarini soddalashtiradi. Shu bilan birga, ma'lumot xavfsizligi, provayder tanlovi va backup strategiyalari tizim samaradorligi uchun muhim omillar ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari kichik va o'rta korxonalar, davlat va notijorat tashkilotlar uchun bulutli buxgalteriya tizimlarini joriy etishda amaliy tavsiyalar beradi.

### Annotation

This article explores the impact of cloud accounting systems on the effectiveness of financial statements, audit processes, and corporate governance. The study is based on a survey and literature analysis involving 120 accountants and auditors. The results showed that cloud systems increased report preparation rates, reduced error rates, and simplified audit processes. At the same time, information security, provider choice, and backup strategies have been found to be important factors for system efficiency. The results of the study provide practical recommendations on the implementation of cloud accounting systems for small and medium-sized enterprises, state and non-profit organizations.

### Аннотация

В этой статье исследуется влияние облачных систем бухгалтерского учета на эффективность финансовой отчетности, процессов аудита и корпоративного управления. Исследование основано на опросе и анализе литературы с участием 120 бухгалтеров и аудиторов. Результаты показали, что облачные системы увеличивают скорость подготовки отчетов, уменьшают количество ошибок и упрощают процессы аудита. Однако было обнаружено, что безопасность данных, выбор поставщика и стратегии резервного копирования являются важными факторами эффективности системы. Результаты исследования дают практические рекомендации по внедрению систем облачного учета для малых и средних предприятий, государственных и некоммерческих организаций.

### Kalit so'zlar:

*bulutli buxgalteriya, moliyaviy hisobot, audit samaradorligi, ma'lumot xavfsizligi, operatsion samaradorlik.*

### Key words:

*cloud accounting, financial reporting, audit efficiency, data security, operational efficiency.*

### Ключевые слова:

*облачный учет, финансовая отчетность, эффективность аудита, информационная безопасность, операционная эффективность.*

Email: [torabekovozodbek@gmail.com](mailto:torabekovozodbek@gmail.com)

©2025. Xudayarov Rashid, To'rabekov Ozodbek

Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license



[Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

## Kirish

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi korxonalar buxgalteriya jarayonlarida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, bulutli hisoblash texnologiyalarining keng joriy etilishi buxgalteriya tizimlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash, ehtiyojga mos resurslardan foydalanish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini yaratmoqda. Tadqiqotlarda bulutli buxgalteriya tizimlari nafaqat jarayonlarni soddalashtirishi, balki moliyaviy ma'lumotlar aniqligini oshirishi, xatoliklarni kamaytirishi va hisobotlarni tayyorlash tezligini sezilarli darajada oshirishi qayd etiladi. Ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun qimmat serverlar yoki texnik infratuzilma xarajatlarisiz samarali buxgalteriya yuritish imkoniyati ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, masofaviy ish amaliyotlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda bulutli platformalar jamoaviy ishlashni yengillashtirishi, filiallarga ega korxonalarda yagona axborot makonini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, bulutli tizimlarning tarqalishi bir qator xavf va cheklovlarni ham yuzaga keltiradi. Moliyaviy axborotning uchinchi tomon serverlarida saqlanishi ma'lumotlar maxfiyligi, uzluksiz ishlash, tashqi tahdidlardan himoyalanih, ma'lumotlar

ustidan nazorat, backup va tiklanish mexanizmlari kabi masalalarni dolzarb qiladi. Ilmiy manbalarda bulutli tizimlardan foydalanishda kiberxavfsizlik protokollarini takomillashtirish, kriptografik algoritmlar qo'llash, autentifikatsiya tizimlarini mustahkamlash va provayder tanlash mezonlarini aniq belgilash zarurligi ko'rsatilgan. Ayniqsa, moliyaviy axborot bilan ishlovchi tashkilotlarda ma'lumotlar oqish xavfi, xizmat ko'rsatuvchi provayderdagi texnik uzilishlar, tizimga kirishdagi muammolar yoki internetga bog'liqlik kabi omillar faoliyat barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## Metodologiya

Avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tadqiqotlar, amaliy hisobotlar va bulutli buxgalteriya tizimlari bo'yicha jurnallarda chop etilgan manbalar **kontent-tahlil (content analysis)** usuli orqali o'rganildi. Ushbu bosqich tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish, xavfsizlik tahdidlari, zamonaviy kriptografik yondashuvlar, bulutli infrastrukturnalarning ishlash tamoyillari va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qildi. Tanlangan manbalarda qayd etilgan asosiy fikrlar tematik guruhlariga ajratilib, ularning o'xshashlik va farqlari bo'yicha konseptual xarita tuzildi.

Keyingi bosqichda bulutli buxgalteriya tizimlaridan foydalanayotgan korxonalarda **empirik**

**ma'lumotlarni yig'ish** maqsadida kichik ko'lamli so'rovnoma (survey) o'tkazildi. So'rovnoma savollari foydalanuvchilarning tizimdan qoniqish darajasi, xavfsizlikka oid tashvishlari, texnik qulayliklar, foydalanish tezligi, integratsiya imkoniyatlari va umumiy samaradorlik haqidagi fikrlarini aniqlashga qaratildi. Savollar Likert shkalasiga asoslangan holda tuzildi, bu esa natijalarni miqdoriy tahlil qilish imkonini berdi. Ma'lumotlar Microsoft Excel va SPSS statistik dasturlari yordamida qayta ishlanib, deskriptiv statistika usullari (o'rtacha qiymat, dispersiya, foiz ulushlari) orqali tahlil qilindi.

Shuningdek, bir nechta mahalliy korxonalar va auditorlik tashkilotlarida bulutli buxgalteriya tizimlarining amalda qo'llanilishiga doir **taqqoslov tahlil (comparative analysis)** o'tkazildi. An'anaviy (lokal) buxgalteriya dasturlari va bulutli platformalar o'rtasidagi farqlar — xarajatlar, vaqt tejalishi, kiritiladigan xatoliklar soni, audit jarayonlaridagi qulaylik, texnik xizmat ko'rsatish talablari va ma'lumotni tiklash tezligi kabi ko'rsatkichlar asosida solishtirildi. Ushbu tahlil bulutli tizimlarning iqtisodiy va operatsion samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning xavfsizlik jihatlarini baholashda **risklarni aniqlash va tasniflash modeli** qo'llanildi. Xatarlar texnik (kiberhujumlar, tizim uzilishlari), tashkiliy (noto'g'ri kirish siyosati, xodim xatolari) va tashqi (provayderdagi nosozliklar, internet uzilishi) omillar bo'yicha guruhlarga ajratildi. Har bir riskning ehtimoli va ta'sir darajasi ekspertlar bahosi asosida ballik tizimda baholandi.

Metodologiyaning yakuniy bosqichi sifatida sifat tahlil (qualitative interpretation) amalga oshirilib, yig'ilgan

ma'lumotlar o'zaro solishtirildi, asosiy tendensiyalar, dolzarb muammolar va mavjud imkoniyatlar aniqlab olindi. Bu esa maqolaning xulosaviy qismida asoslangan taklif va tavsiyalar berish imkonini yaratdi.

### **Natijalar**

Tadqiqot natijalari bulutli buxgalteriya tizimlaridan foydalanish korxonalar moliyaviy faoliyatida sezilarli samaradorlik yaratishini ko'rsatdi. So'rov natijalariga ko'ra, hisob va audit sohasida faoliyat yurituvchi 120 nafar mutaxassisning 79,17 foizi amaliy ish jarayonida bulutli buxgalteriya tizimlaridan foydalanayotganini bildirgan. Bu foydalanuvchilar orasida tizimga bo'lgan ishonch darajasi ham yuqori bo'lib, respondentlarning 53,33 foizi bulutli tizimlarning barqarorligi va ma'lumotlarni to'g'ri qayta ishlash imkoniyatlarini yetarlicha ishonchli deb baholagan.

Shuningdek, foydalanuvchilarning 54,17 foizi ma'lumotlarni kiritish, soliq hisoblash va hisobot tayyorlash kabi jarayonlarda an'anaviy dasturlarga nisbatan xatoliklar sezilarli darajada kamayganini ta'kidlagan. Biroq, ayrim foydalanuvchilarda tizimdagi ayrim funksional muammolar va texnik noqulayliklar tufayli 34,17 foiz hollarda xatolar uchrab turishi qayd etilgan bo'lib, bu bulutli platformalarning takomillashtirilishi zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqladiki, bulutli buxgalteriya tizimlari audit jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Xususan, bulutli tizimlar joriy etilgan korxonalarda auditorlar tomonidan qo'lda bajariladigan monotondan iborat amaliy harakatlar kamaygan, ma'lumotlar avtomatik integratsiyasi yaxshilangan va audit hujjatlarini shakllantirish jarayoni sezilarli ravishda tezlashgan. Bu esa

audit samaradorligining oshishiga va xatoga moyil bo'lgan operatsion jarayonlarning qisqarishiga xizmat qilgan. Moliyaviy hisobotlar tayyorlashda tezlik, axborotning aniq qayd etilishi, shaffoflik darajasining oshishi ham bulutli tizimlarning asosiy afzalliklari sifatida qayd etildi. Bu jihatlar korxonalarda xarajatlarni optimallashtirish, infratuzilma xarajatlarini qisqartirish va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, tadqiqot xavfsizlik bo'yicha dolzarb masalalar mavjudligini ham ko'rsatdi. Respondentlarning 31,67 foizi bulutli tizimlarda ma'lumotlarning maxfiyligi, ularning haqiqiy egasi kimligi, serverlarda saqlanayotgan ma'lumotlar bo'yicha provayderning huquqiy mas'uliyati, internetga to'liq bog'lanish va kiberxavfsizlik tahdidlari borasida xavotir bildirgan. Bundan tashqari, 35 foiz mutaxassislar bulutli tizimlarni joriy etish xarajatlari mahalliy korxonalar uchun nisbatan yuqori ekanini qayd etgan. Bu tizimlarning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lsa-da, ularni joriy etishda bosqichma-bosqich integratsiya strategiyasi, xavfsizlik protokollarini mustahkamlash, foydalanuvchilarni raqamli savodxonlik bo'yicha o'qitish va barqaror internet infratuzilmasini ta'minlash zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bulutli buxgalteriya tizimlari nafaqat moliyaviy hisobotlar sifati va tezligini oshirish, balki audit faoliyatini optimallashtirish, real vaqt rejimidagi monitoring imkoniyatlarini kengaytirish, korxonalar resurslaridan samarali foydalanish va raqamli boshqaruvga o'tish jarayonini tezlashtirishda ham katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, xavfsizlik protokollarini

kuchaytirish va tizim barqarorligini oshirish ushbu texnologiyaning kengroq joriy etilishida muhim omil bo'lib qolmoqda.

### **Tahlil va muhokama**

Tadqiqot natijalari bulutli buxgalteriya tizimlarining moliyaviy hisob-kitoblar va audit jarayonlarida samaradorlikni oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. So'rov va empirik tahlil natijalariga ko'ra, foydalanuvchilarning aksariyati (79,17 %) tizimlardan muntazam foydalanib, moliyaviy operatsiyalar tezligi va aniqligi sezilarli darajada oshganini qayd etgan. Bu natija avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi; xususan, RSIS International va IJISRT manbalarida bulutli tizimlar hisobot tayyorlash jarayonini tezlashtirishi, xatoliklar sonini kamaytirishi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashi qayd etilgan.

Audit jarayonlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, bulutli tizimlar monoton va xatoga moyil bo'lgan qo'lda bajariladigan operatsiyalarni kamaytiradi, ma'lumotlarni integratsiyalashni soddalashtiradi va real vaqt rejimida kuzatuv imkoniyatini yaratadi. Bu esa auditchilar ish samaradorligini oshirish va moliyaviy nazoratning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, IJRT va Journal Ekonomi Bisnis dan olingan tadqiqotlar ham bulutli tizimlarning audit sifatini oshirishda ijobiy rolini tasdiqlaydi.

Biroq, natijalar shuni ko'rsatadiki, xavfsizlik masalalari tizim samaradorligining asosiy cheklov omillaridan biri sifatida qolmoqda. Respondentlarning 31,67 %i ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik tahdidlari borasida xavotir bildirdi, shuningdek 35 %i tizimlarni joriy etish xarajatlarini yuqori deb baholadi. Bu

holat tadqiqot natijalarini avvalgi adabiyotlar bilan solishtirganda, bulutli tizimlarning foydasi bilan birga xavfsizlik, provayder tanlovi va backup strategiyalariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil shuni ham ko'rsatdiki, bulutli buxgalteriya tizimlarining samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun integratsiya, xodimlarning raqamli savodxonligi va tizim provayderining texnik barqarorligi muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan, natijalar O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta korxonalar uchun ham dolzarb ekanini ko'rsatadi, chunki ularning ko'pchiligi IT infratuzilmasi va kadrlar kompetensiyasi jihatidan cheklangan.

Umuman olganda, tadqiqot bulutli buxgalteriya tizimlarining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tezligi, audit sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslarni samarali boshqarishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tizim xavfsizligi, backup va tiklanish strategiyalari hamda provayder tanlovi kabi omillar e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Ushbu natijalar korxonalariga bulutli tizimlarni joriy etish jarayonida xavf va foyda balansini aniqlash, xavfsizlik protokollarini kuchaytirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

### **Xulosa**

Ushbu tadqiqot bulutli buxgalteriya tizimlarining moliyaviy hisob-kitoblar, audit jarayonlari va korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bulutli tizimlar hisobotlarni tayyorlash tezligini oshirish, xatoliklarni kamaytirish, audit jarayonlarini soddalashtirish va resurslardan samarali foydalanishga

sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, tizim foydalanuvchilari orasida yuqori ishonch darajasi kuzatilgan, bu bulutli buxgalteriya platformalarining amaliy qulayligi va barqaror ishlashini tasdiqlaydi.

Biroq, tadqiqot xavfsizlik va iqtisodiy jihatlarni ham dolzarb masala sifatida ko'rsatdi. Respondentlarning bir qismi ma'lumotlar maxfiyligi, provayder tanlovi, backup va tiklanish strategiyalari bo'yicha xavotir bildirgan, shuningdek, tizimni joriy etish xarajatlari ham ayrim korxonalar uchun yuqori deb baholangan. Shu bois, bulutli buxgalteriya tizimlaridan to'liq foyda olish uchun integratsiya strategiyasi, foydalanuvchilarni raqamli savodxonlik bo'yicha o'qitish, xavfsizlik protokollarini mustahkamlash va texnik barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bulutli buxgalteriya tizimlarining nafaqat moliyaviy hisobotlarni tezkor va aniq tayyorlash, balki audit jarayonlarini samarali amalga oshirish va korxonalar boshqaruvini optimallashtirishda muhim vosita ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tizim xavfsizligi va barqaror ishlashini ta'minlashga doir choralar ko'rilmasa, ulardan kutilgan foyda to'liq olinmasligi mumkin. Tadqiqot natijalari O'zbekiston va Markaziy Osiyo sharoitidagi kichik va o'rta korxonalar, davlat va notijorat tashkilotlar uchun bulutli buxgalteriya tizimlarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot. Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT.

2. AcoBloom International Private Limited. Guide to Cloud-Based Accounting: Features, Benefits & Risks.
3. RSIS International. Cloud Accounting: A Theoretical Overview. International Journal of Research and Scientific Innovation (IJRSI).
4. Best Publication. Bulutli hisoblash tizimlarida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda foydalaniladigan kriptografik algoritmlar tahlili. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali.
5. Nodira T., Rashid X. Problems of innovation management in the higher education system //Web of scientist: International scientific research journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-164.
6. Rashid X., Mokhichekhra B. The actions of international economic organizations to solve global issues //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 14. – С. 109-118.
7. Xudayarov R., Akhror A. Big data types of education system and opportunities for using them in the field [J] //Journal of academic research and trends in educational sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 21-24.
8. Xaydarov B. X., Xudayarov R. T. Raqamli iqtisodiyot biznesni rejalashtirish //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 110-113.
9. Цой М. П., Худояров Р. Т. Рашидов АР ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami-Jizzax: O'zMU Jizzax filiali. – 2022.
10. Khudoyarov R. Improving economic governance in a market economy //galaxy international interdisciplinary research journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 610-612.
11. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 21-24.
12. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 301-306.
13. Титова В., Мамонова Е., Цой М. Управление маркетингом. – Litres, 2022.
14. Цой М. П., Эшонкулов Т., Касимова Д. П. Реформы в сфере образования Республики Узбекистан //Гуманитарные науки в XXI веке. – 2014. – №. 18. – С. 210-213.
15. Муртазин Э. Р., Сиддиқов М. Ю., Цой М. П. Стратегия развития экономики Узбекистана-региональные особенности //Региональные проблемы преобразования экономики: интеграционные процессы и механизмы формирования и социально-экономическая политика региона. – 2018. – С. 85-87.
16. Абсалямова С., Зулъфақарова Л., Цой М. ИНВЕСТИЦИИ В УСТОЙЧИВЫЕ ПРОЕКТЫ КАК СОВРЕМЕННЫЙ ТРЕНД МЕЖДУНАРОДНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЦЕССА: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14540147>//International scientific and practical conference.-2024 //Т. – Т. 1. – №. 2. – С. 194-198.
17. Сағатов Б., Цой М., Гулиев А. Повышение качества продукции предприятий стройиндустрии как фактор конкурентоспособности производства //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020. – Т. 1. – С. 79.